

NO‘XAT NAVLARINING DON SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA EKISH MUDDATI VA SXEMASINING TA‘SIRI

Abdiyev Anvar Almirzayevich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Jabborov Farrux Burievich

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21029618>

Annotatsiya. No‘xat - qimmatli oziq-ovqat o‘simligi bo‘lib, doni oqsilga boy va xushbo‘yligi bilan ajralib turadi, shuningdek u inson va chorva mollari oziqlanishida muhim o‘rin egallaydi hamda iqlim sharoitiga nisbatan chidamli ekinlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida no‘xatning Zumrad va Malxotra navlarida ekish muddati hamda ekish sxemalarining don sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, no‘xat doni tarkibidagi oqsil va moy miqdori asosan navning biologik xususiyatlari va ob-havo sharoitiga, shuningdek, ekish muddati va sxemasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Erta ekish muddati (10-15 fevral) don tarkibida oqsil miqdorining yuqori bo‘lishini ta‘minlagan bo‘lsa, kechikkan muddatlarda bu ko‘rsatkich pasaygan. Eng maqbul natijalar 60x9x1 ekish sxemasida kuzatilib, unda don tarkibidagi oqsil va moy miqdori hamda gektaridan olinadigan oqsil va moy hosili yuqori bo‘lgan.

Kalit so‘zlar. No‘xat, nav, ekish muddati, ekish sxemasi, oqsil, moy, hosildorlik, don sifati, agrotexnika, Zumrad navi, Malxotra navi.

Kirish. Dunyo aholisining tez sura‘tlar bilan o‘sishi keying yuz yilda dukkakli don ekinlari ekilishini butunlay qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Fan shuni isbot etadiki, inson qishloq xo‘jalik hayvonlarini ehtiyoji uchun avvalo, oqsil moddalari talab etiladi. Ayniqsa, oshqozonda hosil bo‘lmaydigan va unga tayyor holda kelib tushadigan almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar ahamiyatlidir.

Dukkakli-don ekinlari orasida yuqori miqdorda oqsil va sifatli moy beruvchi no‘xat o‘simligi alohida xususiyatga ega. Hozirgi kunda, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida inson ratsionida va chorva mollari oziqasida dukkakli ekinlardan- no‘xat muhim o‘rinni egallaydi.

No‘xat oziqaviy qiymati yuqori bo‘lgan muhim dukkakli-don ekin bo‘lib, donining oziqaviy qiymati bo‘yicha ushbu guruhga kiruvchi barcha ekinlardan ustundir. No‘xat inson tomonidan eng ilk madaniylashtirilgan o‘simliklardan biri hisoblanadi. U butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, jahon dehqonchiligida no‘xat yetishtirish hajmi bo‘yicha soya va loviyadan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi.

No‘xat – qimmatli oziq-ovqat o‘simligi bo‘lib, doni oqsilga boy va xushbo‘yligi bilan ajralib turadi, haroratga talabchan. Hozirgi vaqtda suvli yerlarda yetishtirish texnologiyasi ham joriy qilinmoqda [1].

Dukkakli ekinlar orasida yetishtirish bo‘yicha no‘xat yetakchi o‘rinni egallaydi. U oziq-ovqat va yem-xashak sifatida keng qo‘llanilmoqda. No‘xat navlari tarkibida 20-30 % oqsil, 5-8 % moy hamda 1 kg da 120 grammgacha hazm qilinadigan protiyen borligi aniqlangan [3].

No‘xat doni tarkibida 25,8 % oqsil, 8,19 % moy, 60 % kraxmal va qandlar, 3 % klechatka mavjud bo‘lib, oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi [4].


Oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish va dasturxonimiz to‘kinligini ta‘minlashda dukkakli don ekinlarini ulushi katta. Bu ularning doni tarkibida 25-30 % gacha oqsil borligi bilan izohlanadi [2.]

N.A.Shyurova [5] ma'lumotiga ko'ra, qurg'oqchilik yillarida ham no'xatdan yuqori hosil olish imkoniyati borligi va agrotexnika tadbirlarini to'g'ri qo'llagan vaqtda 2 barobardan ortiq oqsilga boy no'xat ekini hosili olish mumkinligini ta'kidlagan.

No'xat donining navlar bo'yicha yetishtirish sharoitiga mos ravishda sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarning o'zgarib borishi har bir tuproq va iqlim sharoitida o'rganilishi uning hosildorligi bilan birga hosil sifatini yaxshilashiga yordam beradi.

Material va uslublar. Tajribalarimizda Davlat reestriga kiritilgan no'xatning Zumrad va Malxotra navlari Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida turli ekish muddatlarida (10-15-fevral, 20-25-fevral va 01-05-mart) hamda ekishning 60x6, 60x9 va 60x12 sm sxemalarida ekilib, ularning don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tajriba variantlari 4 qaytariqda, 2 yarusda joylashtirildi. Dala tajribasining variantlari 4 qatordan iborat bo'lib, shundan o'rtadagi 2 qatorida kuzatuv va hisoblash ishlari olib borildi, qolgan 2 qator himoya qatori sifatida qabul qilindi. No'xat ekinida tadqiqotlar olib borishda “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” uslubiy qo'llanmasi asosida hamda hosildorlik natijalarni statistik tahlili B.A.Dospexov (1985) usubida aniqlandi

Tadqiqot natijalari. Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida 2020-2022 yillarda olib borilgan tajribalardan ma'lum bo'lishicha no'xat doni tarkibidagi oqsil va moy miqdori ko'proq navni biologik xususiyati va ob-havo sharoiti, ma'lum darajada esa urug'ni ekish muddati va sxemalariga bog'liq ravishda o'zgarib borishi kuzatildi. No'xat doni tarkibidagi oqsil miqdori Zumrad navida yuqori bo'lib 10-15-fevralda ekish sxemalari variantlari bo'yicha o'rtacha 25,5-26,3 % ni, 20-25-fevralda ekilganda 25,2-26,1 % ni, 1-5 martda ekilganda 24,4-25,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Malxotra navida 10-15-fevralda ekish sxemalari variantlari bo'yicha o'rtacha 24,4-25,2 % ni, 20-25-fevralda ekilganda 24,3-24,9 % ni, 1-5 martda ekilganda 23,0-23,7 % bo'lishi aniqlandi. Tajribada o'rganilgan ikkala navda ham ekish muddatlari kechikishi bilan don tarkibidagi oqsil miqdori 1,0-1,5 % gacha kamayishi aniqlandi (1-rasm).



Shu bilan birga, no'xat doni tarkibidagi moy miqdori ham ekish muddati va sxemalariga ma'lum darajada bog'liq holda o'zgarishi kuzatildi. Jumladan, Zumrad navida moy miqdori 10-15

fevralda ekish variantlari bo'yicha o'rtacha 5,4–5,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 20-25 fevralda 5,7-6,0 % atrofida, 1-5 martda esa 5,3-5,6 % gacha kamayganligi aniqlandi. Malxotra navida esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 5,1–5,5 %, 5,4–5,7 % va 5,4–5,8 % ni tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, erta ekish muddatlari (10-15 fevral) no'xat doni tarkibida oqsil miqdorining yuqori bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, biroz kechiktirilgan muddatlarda moy miqdorining nisbatan ortishi kuzatildi. Biroq, umumiy hisobda don sifati va unumdorlik ko'rsatkichlari jihatidan erta ekish muddatlari ustunlik qilganligi aniqlandi.

Shuningdek, ekish sxemalari ta'siri tahlil qilinganda, 60x9x1 sxemasi har ikkala navda ham nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatgani, ya'ni don tarkibidagi oqsil va moy miqdori hamda gektaridan olingan oqsil va moy hosili ko'proq bo'lganligi qayd etildi. Bu esa mazkur sxema o'simliklarning oziqlanish maydoni optimal bo'lishini ta'minlab, ularning yaxshi o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi isbotlandi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B. O'simlikshunoslik -Toshkent, NIF MSH, 2020 y. – 138-166 b.
2. Bobokulov Z.R. Lalmikorlikda no'xat navlari don sifat ko'rsatkichlariga ekish muddatlari va sxemalarining ta'siri. AGRO ILM. –Toshkent, 2025. -№ 1(106). –B.34-35.
3. Bobokulov, Z., Bobomirzaev, P., & Tursunov, S. (2025). The productivity of chickpeas varieties planted at different times and sowing schemes. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 194, p. 01017). EDP Sciences.
4. Otaqulova D. A., Amanov O. A. No'xat doni oqsil miqdoriga azotning ta'siri. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. №6 2021 y.79-80 b.
5. Шюрова Н.А. Продуктивность и симбиотическая активность нута в зависимости от приемов выращивания в степной и сухостепной зонах Саратовской области: Автореф. дис.канд. с.-х. наук.–Саратов, г 2004. 23-с.